

PROSTATA BEZI PATALOGIYALARIDA MRT AHAMIYATI

Normatov Ozodbek Aziz o'g'li
Nishonboyev Ozodbek Bahromjon o'g'li
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18814884>

Annotation. Prostata bezining yaxshi sifatli giperplaziyasi (adenomasi) ayniqsa 50 yoshdan oshgan erkaklarda keng tarqalgan urologik kasalliklardan biridir.[1] Kasallik dastlabki bosqichlarda belgilar kam yoki nospetsifik bo'lgani sababli tashxis ko'pincha kech qo'yiladi, bu esa davolash samaradorligini pasaytiradi. Prostata bezi o'smalarida qiyosiy tashxislashda nurlanish yo'q, yuqori aniqlikda o'rganishda MRT usulining ahamiyati katta.[2,3]

Maqsad: Prostata bezi o'smalarining MRT radiologik xususiyatlarini o'rganish.

Materiallar va usullar. Tadqiqotga prostata bezi patologiyalariga shubha qilingan 124 nafar bemor kiritildi. Bemorlarning yoshi 46 yoshdan 78 yoshgacha bo'lib, o'rtacha yosh 61,4 yoshni tashkil etdi. Tadqiqot RIOvaRIATM onkourologiya bo'limida tekshiruvdan o'tdi. Prostata bezi ultratovush tekshiruvi (UTT) o'tkazilib, bezning hajmi, konturlari, parenxima tuzilishi va tugunsimon hosilalar baholandi. UTT usulining diagnostik imkoniyatlari cheklanganligi sababli, shubhali holatlarda va PSA darajasi oshgan bemorlarda keyingi bosqichda prostata bezining MRT bajarildi. MRT yordamida prostata bezining zonal anatomiyasi, tugunsimon hosilalar, kapsula holati, atrof to'qimalarga invaziya belgilari hamda urug' pufakchalarining holati batafsil baholandi. MRT natijalariga ko'ra shubhali o'choqlar PI-RADS tizimi bo'yicha baholanib, klinik ahamiyatga ega bo'lgan holatlarda prostata biopsiyasi o'tkazildi. UTT va MRT natijalari biopsiya ma'lumotlari bilan solishtirilib, diagnostik usullarning samaradorligi tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ultratovush tekshiruvlarida prostata bezining hajmi kattalashuvi va parenxima tuzilishining notekisligi 124 nafar bemorda aniqlanib, ushbu holatlar asosan o'tish zonasida joylashgan tugunsimon o'zgarishlar bilan namoyon bo'ldi. Biroq UTT yordamida o'choqlarning xarakteri va invaziya darajasini aniq baholash imkoniyati cheklanganligi sababli, ushbu bemorlar MRT tekshiruviga yo'naltirildi. MRT natijalariga ko'ra, 76 nafar bemorda (61,3%) prostata bezining yaxshi sifatli giperplaziyasi, qolgan 48 nafar bemorda (38,7%) esa yomon sifatli o'smalarga xos belgilar aniqlandi. MRT yordamida 48 nafar bemorlarda o'smalarning lokalizatsiyasi, kapsula holati, kapsuladan tashqariga o'sish belgilari aniqlandi. Ular ichidan 31 holatda (64,6%) kapsuladan tashqariga o'sish belgilari hamda 17 holatda (35,4%) urug' pufaklarining shikastlanishi qayd etildi. MRT natijalari biopsiya ma'lumotlari bilan yuqori darajada moslik ko'rsatdi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, MRT prostata bezi patologiyalarini aniqlashda yuqori sezgirlikka ega bo'lgan zamonaviy diagnostik usul hisoblanadi. MRT prostata bezining yaxshi sifatli giperplaziyasini yomon sifatli o'smalardan ishonchli differensial tashxislash, o'smalarning lokalizatsiyasi va tarqalish darajasini aniqlash imkonini beradi. Prostata bezi o'smalarida MRT ning qo'llanilishi erta tashxis, biopsiyani to'g'ri yo'naltirish va individual davolash taktikasini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Berry S.J, Coffey D.S, Walsh P.C, Ewing L.L. The development of human benign prostatic hyperplasia with age. J Urol. 1984;132:474-479. doi: 10.1016/s0022-5347(17)49698-4. [DOI]

[PubMed] [Google Scholar]

2. Bosch J.L., Tilling K., Bohnen A.M., Bangma C.H., Donovan J.L. Establishing normal reference ranges for prostate volume change with age in the population-based Krimpen-study: prediction of future prostate volume in individual men. *Prostate*. 2007;67:1816–1824. doi: 10.1002/pros.20663. [DOI] [PubMed] [Google Scholar]

3. Loeb S., Kettermann A., Carter H.B., Ferrucci L., Metter E.J., Walsh P.C. Prostate volume changes over time: results from the Baltimore Longitudinal Study of Aging. *J Urol*. 2009;182:1458–1462. doi: 10.1016/j.juro.2009.06.047. [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]

